



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»  
MAVZUSIDAGI II XALQARO  
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

**TOSHKENT - 2025**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



3. Bransford, J. D., Brown, A. L., Cocking, R. R. / How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School. National Academy Press: 2000. – P. 374.
4. Chi, M. T. H., de Leeuw, N., Chiu, M. H., LaVancher, C. Self-explanations: How students study and use examples in learning to solve problems. // Cognitive Science, 1989. 13(2). – P. 145–182.
5. Jonassen, D. H. Designing Constructivist Learning Environments. In C. Reigeluth (Ed.), / Instructional Design Theories and Models: A New Paradigm of Instructional Theory. Routledge: 2013. – P. 728 (207–232).
6. Keller, J. M. Development and use of the ARCS model of instructional design. // Journal of Instructional Development, 1987. 10(3). – P. 2–10.
7. Knowles, M. S. / The Adult Learner: A Neglected Species. Gulf Publishing. 1990 – 374 b.
8. Larkin, J. H., Simon, H. A. Why a diagram is (sometimes) worth ten thousand words. // Cognitive Science, 1987. 11(1). – P. 65–100.
9. Marzano, R. J. / The Art and Science of Teaching: A Comprehensive Framework for Effective Instruction. ASCD: 2007, – P 221.
10. Nesbit, J. C., Adesope, O. O. Learning with concept and knowledge maps: A meta-analysis. // Review of Educational Research, 2006. 76(3), – P. 413–448.
11. Novak, J. D., Gowin, D. B. / Learning How to Learn. Cambridge University Press., 1984. – P. 199.
12. Wiggins, G. / Educative Assessment: Designing Assessments To Inform and Improve Student Performance. Jossey-Bass: Willey. 1998 – P. 361.

**DOI:** 10.52773/tsuull.conf.2025/QXXX7513

## **8-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI**

**Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*tayanch doktoranti*

*nilufarturgunova20@gmail.com*

*ORCID: 0000-0002-8996-7300*

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda 8-sinf ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan o'quv loyihasiga namuna keltirilgan. Loyiha ishining qisqacha mazmuni, maqsad-vazifalari, tasnifi bayon etilgan. Loyiha asosida o'quvchilarning o'quv-loyihaviy faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil etish yo'rqnomasini berilgan.

**Kalit so'zlar:** 8-sinf, loyiha ishi, o'quv-loyihaviy faoliyat, loyiha bosqichlari, loyiha turlari.

**Аннотация.** В данном тезисе приведён пример учебного проекта, который можно применять на уроках родного языка в 8-м классе. Представлены краткое содержание проекта, его цели и задачи, а также классификация. Также дана поэтапная инструкция по организации учебно-проектной деятельности учащихся на основе данного проекта.

**Ключевые слова:** 8 класс, проектная работа, учебно-проектная деятельность, этапы проекта, виды проектов.

**Annotation.** This thesis presents a sample educational project that can be implemented in 8th grade mother tongue lessons. It outlines the project's summary, objectives and tasks, as



well as its classification. A step-by-step guide for organizing students' project-based learning activities based on this project is also provided.

**Keywords:** 8th grade, project work, project-based learning, project stages, types of projects.

Bugungi kunda ona tili ta'limida o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yishda loyiha texnologiyasiga juda ko'p murojaat qilinmoqda. Chunki mazkur texnologiya ona tili darslarida o'rgatilgan nazariy bilimlarni o'quvchi tomonidan amaliyotda qo'llab, mustahkamlab olishlariga imkon yaratadi. O'quvchilarda ijodkorlik, kreativlik, tanqidiy-tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

"Ona tili ta'limida loyiha asoslangan topshiriqlardan foydalanish metodikasi" tadqiqot ishi bo'yicha olib borilayotgan tajriba-sinov ishlari :rasida 8-9-sinflarda bir qator loyiha ishlari tashkil etildi. Tajriba-sinov jarayonining natijalari biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarning samaradorligini aniqlashda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Tajriba-sinov jarayonida tadqiqot obyekti hisoblangan 8-sinflarda 2024-2025-o'quv yili davomida jami 6 ta loyiha ishi o'tkazildi. Berilgan loyiha ishlari mavzu yo'nalishi, davomiyligi, oson-murakkabligi va boshqa parametrlarga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Quyida 8-sinf uchun mo'ljallangan "Ustozim bilan intervyyu" nomli loyiha ishining qisqacha mazmuni bilan tanishamiz.

"Ustozim bilan intervyyu" loyihasining topshirig'iga ko'ra, o'quvchilar maktabdagи istalgan o'qituvchisidan intervyyu olishlari lozim. Intervyyu savollarini mustaqil ravishda tuzish hamda ishning natijasini yozma ko'rinishda topshirish talab qilingan. Loyerha ishining qisqacha tasnifini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

### **"Ustozim bilan intervyyu" loyihasi**

Faoliyat turiga ko'ra	Ijodiy
Ishtirokchilar soniga ko'ra	Individual
Fan va sohalar bilan bog'liqligiga ko'ra	Fanlararo (ona tili, jurnalistika)
Natija shakliga ko'ra	Mahsulotga yo'naltirilgan
Davomiyligiga ko'ra	Qisqa muddatli

"Ustozim bilan intervyyu" loyihasi ustida ishlash davomida o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi:

1. Nutqiy: og'zaki va yozma nutq savodxonligi; o'z fikrini aniq, tushunarli va ifodali yetkazib bera olish.

2. Lingvistik: til birliklaridan to'g'ri foydalanish, og'zaki va yozma nutqda grammatik me'yorlarga amal qilish, imloviy savodxonlik.

3. XXI asr ko'nikmalari: mustaqil fikrlash, tadqiqotchilik, axborotlar bilan ishslash va ularni saralash, ijodkorlik.

Mazkur loyiha ishi 5 bosqichda tashkil etildi. Quyida har bir bosqichda amalga oshiriladigan ishlarning qisqacha mazmuni keltirilgan:



*1-bosqich – loyiha ishiga kirish.* Loyihaning ilk bosqichida o'quvchilarga loyiha ishining mazmuni, maqsadi, amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar, davomiyligi kabilar haqida ma'lumot beriladi. Loyiha ishining natijasi qanday ko'rinishda topshirilishi lozimligi tushuntiriladi.

O'quvchilarni loyiha ishiga olib kirish, loyiha mavzusi bo'yicha tasavvurga ega bo'lishlari uchun birinchi bosqichda intervyu haqida qisqa suhbat tashkillashtiriladi. Shuningdek, mustaqil o'qib olishlari uchun intervyu tashkil etish, uning turlari, muvaffaqiyatli intervyu o'tkazish shartlari kabi ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan maqolalar taqdim etiladi. Keyingi bosqichgacha o'quvchilarga intervyu uchun suhbatdoshni aniqlashtirib olish, suhbat yo'nalishini, maqsadini belgilab olish hamda savollar tuzishga kirishish vazifalari topshiriladi.

*2-bosqich – loyiha ishi bo'yicha asosiy topshiriqlarni berish.* Bu bosqichda asosiy e'tibor savollar tuzish va ular ustida ishlashtirishga qaratiladi. O'quvchilar tayyorlab kelgan savollar birgalikda muhokama qilinadi. Ularga intervyu uchun savollar tuzishda nimalarga ahamiyat berishi zarurligi, savollarga qo'yiladigan talablar berilgan yo'riqnomalar tarqatish mumkin.

Loyihaning keyingi bosqichigacha o'quvchilar intervyu olmoqchi bo'lgan ustozlari bilan uchrashib, suhbat vaqtini joyini aniqlashtirib olishlari hamda suhbatga tayyorgarlik ko'rishlari lozimligi aytib o'tiladi.

*3-bosqich – o'quvchilarning mustaqil faoliyati.* Bu bosqichda loyihaning asosiy qismi – intervyu jarayonini o'tkazish ko'zda tutilgan. O'quvchi belgilangan suhbatdoshidan intervyu olishi va uni diktofon orqali yozib olishi zarur.

*4-bosqich – loyiha taqdimotiga tayyorgarlik.* Mazkur bosqichda loyiha ishining taqdimotiga tayyorgarlik ishlari: intervyuni tahrirlash, qog'ozga ko'chirish, ishning titul qismi ustida ishlashtirish kabilar amalga oshiriladi.

*5-bosqich – loyiha taqdimoti.* Loyiha ishining so'nggi bosqichida tayyorlangan intervyular taqdimoti o'tkaziladi. Har bir o'quvchining intervyu matni bilan qisqacha tanishib chiqiladi. Belgilangan mezonlar yordamida loyiha ishining natijasi baholanadi, yutuq va kamchiliklar birgalikda tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur loyiha ishining yakunida quyidagi savollarni o'z ichiga olgan qisqa so'rovnoma olish maqsadga muvofiq:

1. Nima uchun aynan shu o'qituvchidan intervyu olishga qaror qildingiz?
  - a) juda ham mehribon o'qituvchi bo'lgani sababli;
  - b) mening birinchi ustozim bo'lgani sababli;
  - c) men eng bilimli deb hisoblaydigan ustoz bo'lgani sababli;
  - d) men ham ulardek o'qituvchi bo'lishga bo'lgan havasim sababli;
  - e) qo'rquvim sababli (bu ustozdan qo'rqrar edim, suhbat asnosida shu qo'rquvimni yengishga harakat qildim).

Boshqa: \_\_\_\_\_

2. Suhbat jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?

- a) qattiq hayajonlandim, suhbatga kirishib keta olmadim;
- b) suhbatdoshimning ba'zi fikrlarini tushunmadim;
- c) suhbatimiz ozroq zerikarli o'tdi;



- d) ba'zi o'ylab qo'ygan savollarimni berishga iymandim;  
 e) yo'q, menda hech qanday muammo bo'lmasi, intervyyu ko'nglimdagidek o'tdi.

Boshqa: \_\_\_\_\_

3. Siz tomoningizdan berilgan savollardan qaysi birini eng yaxshi savol deb ayta olasiz?

4. Intervyudan keyin o'qituvchingiz haqida fikringiz o'zgardimi?

a) ha, men ularni umuman boshqa inson sifatida kashf etdim;

b) yo'q, ular haqidagi tasavvurlarim o'z o'rnida qoldi.

Boshqa: \_\_\_\_\_

5. Kelajakda yana intervyyu olsangiz, qaysi xato va kamchiliklarga yo'l qo'yagan bo'lar edingiz?

Bunday ko'rinishdagi so'rovnama o'quvchiga o'z faoliyatini tahlil qilishga, o'z-o'zini baholashga hamda loyiha ishi bo'yicha fikrlarni umumlashtirib, xuloslashga yordam beradi.

"Ustozim bilan intervyyu" loyihasi o'quvchilar o'rtasida katta qiziqish va ishtiyoq bilan bajarildi. Loyiha ustida ishslash davomida o'quvchilarning og'zaki, yozma nutq malakalari rivojlantirildi, ijodkorlik, tadqiqotchilik hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga erishildi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari tahlil qilinib, ilmiy tadqiqot ishida yoritildi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, turli mazmundagi loyiha ishlari orqali K.Mavlonova ta'kidlaganidek: "Ta'lim jarayonida o'quvchilarning voqeahodisalarini kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy tafakkuri, tanqidiy fikrlash :rasi rivojlantirib boriladi; o'quv fani orqali XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi, har bir mashg'ulot til o'zlashtirishning tabiiy laboratoriyasi sifatida tashkil etiladi" [4].

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Беликова, Ф.Б., Эрганова. Н. Е. Педагогическое проектирование в профессиональном обучении: учебное пособие. – Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2015. – 87 с.

2. Tillayeva R.T. Yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasi: Ped.fan.fals.dok. (PhD)...diss. – Toshkent, 2023. – 194 b.

3. <https://www.smartablearning.com/project-based-learning-examples/>

4. Mavlonova K. Ona tili ta'limi mazmunidagi takomillashuv. "Ma'rifat" gazetasi, 2022-yil. 29-son. 1-2-b.



Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi. <i>ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK BILIMNING O'RNI</i>	701
<i>Odiljonova Nilufar Abduvahob qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA) РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ</i>	706
<i>Normuminova Dilobar Nuriddinovna. ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIJ TAJRIBASI</i>	712
<i>Rahmonova Dinora Nu'mon qizi. SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH</i>	716
<i>Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	721
<i>Saparova Saodat Ataxan qizi. ONA TILI DARSALARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH</i>	727
<i>Sarimsakova Nigora Raxmatovna. TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH</i>	731
<i>Seytaliyeva Nodiraxon. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</i>	735
<i>Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna. ONA TILI DARSALARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i>	742
<i>Tursun Shokirjon Alisher o'g'li. OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR</i>	747
<i>Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi. 8-SINF ONA TILI DARSALARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI</i>	752
<i>To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna. ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH</i>	756
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi. TIL TA'LIMIDA SUN'iy INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR</i>	762
<i>Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi. ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH</i>	767
<i>Usmonova Yulduz Faxriddin qizi. HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR</i>	774
<i>Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna, Shirinova Yekaterina Turakulovna. TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI</i>	780
<i>Xaydarova Madinaxon Umidjonovna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH</i>	785
<i>Feruza G'aybulloyeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI</i>	790

